

Tibbiyot kadrlarini tayyorlash va yosh mutaxassisni ish bilan ta'minlashga ko'maklashish to'g'risida.

SHARTNOMA

(Talaba, oliy ta'lim muassasasi, mahalliy hokimiyat organlari va Sog'liqni saqlash vazirligi o'rtasida tuziladi)

№ _____

«____» _____ 20__ y

(oliy ta'lim muassasasining nomi)

(keyingi o'rinlarda «Oliy ta'lim muassasasi» deb nomlanadi) nomidan muassasa
Ustaviga asoslanib ish yurituvchi rektor _____ bir tomondan
(F.I.SH)

(mahalliy hokimiyat organi)

Ustaviga asoslanib ish yurituvchi _____ ikkinchi tomondan,
(hokimiyat organi rahbari, F.I.Sh)

(viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi)

Ustaviga asoslanib ish yurituvchi _____
(sog'liqni saqlash vazirligi, rahbari, F.I.Sh)

o'chinchii tomondan, (keyingi o'rinlarda «potensial ish beruvchi» deb nomlanadi) va oliy ta'lim muassasasi _____ mutaxassisligi bo'yicha
20__ yilda bitiruvchi _____ da
yashovchi _____ (keyingi o'rinlarda

(talabani F.I.SH.)

«bitiruvchi» deb nomlanadi) to'rtinchi tomondan Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 28 sentyabrdagi 769-sonli qarorining «Nizomi»ga asosan yosh mutaxassislarni o'qitish va ishga joylashishiga ko'maklashish maqsadida ushbu shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

I.SHARTNOMANING PREDMETI.

1.1. Davlat grantlari hisobidan oliy ta'limga ega bo'lgan yosh, mutaxassis (bakalavr, magistr, klinik ordinator)larning intellektual salohiyatidan unumli foydalanish va ularni ish bilan ta'minlashga ko'maklashish.

II.TOMONLARNING HUQUQLARI.

2.1. Oliy ta'lim muassasasi:

2.1.1. Noyob ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha ehtiyoj ko'p bo'lgan taqdirda «Potensial ish beruvchi»larni tender asosida tanlash.

2.1.2. Talaba o'quv amaliyotini o'tashi uchun «Potensial ish beruvchi»ning intellektual va moddiy-texnikaviy bazasining imkoniyatlarini o'rganish va shu asosda tegishli taklif kiritish.

2.2. Mahalliy hokimiyat organi va «Potensial ish beruvchi»:

2.2.1. «Oliy ta'lim muassasasi» o'quv reja va dasturlari bilan tanishish hamda ularni ishlab chiqarish talablariga muvofiqlashtirish yuzasidan o'z takliflarini berish.

2.2.2. «Talaba»ning Davlat imtihonlarida attestatsiya komissiyasi a'zosi sifatida qatnashish.

2.3. «Bitiruvchi»:

2.3.1. O'qish faoliyati davrida belgilangan amaliyotlarni «Potensial ish beruvchi» belgilangan korxonada o'tishi.

2.3.2. Ta'lim muassasasini bitirgandan so'ng ega bo'lgan mutaxassisligi doirasida ish bilan ta'minlashni talab qilish.

III.TOMONLARNING MAJBURIYATLARI.

3.1. Oliy ta'lim muassasasi:

3.1.1. «Bitiruvchi»ni O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida»gi qonunlari asosida ishlab chiqilgan me'yoriy hujjatlar talablariga javob beradigan malakali mutaxassis etib tayyorlash.

3.1.2. «Potensial ish beruvchi»ga «Bitiruvchi» to'g'risida o'qishni tamomlagandan so'ng tegishli tavsiyanomalar berish hamda korxonadagi mehnat faoliyati monitoringini olib borish.

3.1.3. O'qishni tamomlab, «Bitiruvchi» ishga joylashgandan keyin 5 yil (60 oy) davomida unga zarur uslubiy yordam ko'rsatish.

3.1.4. Shuningdek, tomonlarning roziligiga asosan quyidagi shartlarni bajarish majburiyatini ham oladi:

a) _____

3.2. Mahalliy hokimiyat organi, «Potensial ish beruvchi»:

3.2.1. «Bitiruvchi» o'qishni tamomlaganidan so'ng, uni tegishli tartibda O'zbekiston Respublikasining mashg'ulotlar milliy standarti Tasniflagichi (Klassifikatori)ga muvofiq ish bilan ta'minlash.

3.2.2. «Bitiruvchi» o'qishni tamomlab, ishga joylashgach, unga mehnat faoliyati davomida uslubiy yordamlar ko'rsatish.

3.2.3. Quyidagi ijtimoiy yordam va imtiyozlar ko'rsatish:

a) _____

3.3. «Bitiruvchi» o'qishni tamomlaganidan so'ng:

3.3.1. Mazkur shartnoma asosida davlat budjetida ta'lim olib, o'qishni tamomlaganidan so'ng, mahalliy hokimiyat organi va «Potensial ish beruvchining tavsiya etilgan sog'liqni saqlash muassasasida 5 yil (60 oy) davomida samarali faoliyat ko'rsatishi.

3.3.2. Grant asosida tahsil olshan «Bitiruvchi» majburiy ishlab berishdan bosh tortgan xollarda O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetiga oliy tibbiy ta'lim muassasi tomonidan talaba o'qishni bitirgani haqida tegishli buyruqni chiqargan vaqti amalda ko'llanilgan eng kam ish haqining 400 barobari miqdorida kompensatsiyasi to'laydi.

3.3.3. O'z mutaxassisligi bo'yicha malaka tavsifnomasida nazarda tutilgan, shuningdek O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risidagi» va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida»gi qonunlari talablari asosida mustaqil faoliyat olib borish uchun mustaqil bilim va malakaga ega bo'lishi.

IV. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI.

4.1. Tomonlarning biri ushbu shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda boshqa tarafga yetkazilgan zararni amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda to'laydi.

V. TOMONLARNING AMAL QILISH MUDDATI VA UNI BEKOR QILISH TARTIBI.

5.1. Taraflardan birining talabi bilan shartnoma quyidagi hollarda qonunda belgilangan tartibda bekor qilinishi mumkin:

5.1.1. «Bitiruvchi»ning malakasi, bilimi ushbu mutaxassis uchun amalda o'rnatilgan Davlat ta'lim standartlari talablariga javob bermasa.

5.1.2. «Potensial ish beruvchi» ish beruvchi tomonidan shartnoma majburiyatlari bajarilmagan taqdirda.

5.2. Ushbu shartnoma tomonlarning barchasi imzolanganidan so'ng kuchga kiradi hamda shartnoma to'liq bajarilgunga qadar amalda bo'ladi.

TOMONLARNING REKVIZITLARI:

Oliy ta'lim muassasasi: ToshPTI	Xokimiyat organi:	«Sog'liqni saqlash vazirligi»:	«Talaba»:
(nomi)	(nomi)	(nomi)	
Manzil: Toshkent shahar Yunusobod tumani, Bog'ishamol ko'chasi 223	Manzil: _____	Manzil: _____	Manzili: _____
Tyel.:262 2816	Tel.: _____	Tel.: _____	_____
H/r:23402000300100001010	Faks: _____	Faks: _____	Tel.: _____
Sh/r:400910860262667950100054001	Kod: _____	Kod: _____	Pasport seriyasi, nomeri: _____
MFO:00014	H/r: _____	H/r: _____	_____
INN:201122783	INN: _____	INN: _____	Imzo _____
Imzo, muhr: _____	Imzo, muhr: _____	Imzo, muhr: _____	_____
Sana: _____	Sana: _____	Sana: _____	Sana: _____